



Linguistic and cultural analysis of all-Turkish musical terms

Shokhsida ESHBUTAYEVA¹

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024
Received in revised form
10 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
25 August 2024

Keywords:

music terms,
linguistic culture,
etymology,
general Turkish layer,
melody,
song.

ABSTRACT

In this article, musical terms related to the common Turkic layer of the Uzbek language are analyzed from an etymological and linguistic perspective. The analysis revealed that ethnic, religious, national, and cultural characteristics of the people have significantly influenced the formation and development of these terms.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp171-180>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Umumturkiy musiqa terminlarining lingvokulturologik tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

musiqa terminlar,
lingvokulturologiya,
etimologiya,
umumturkiy qatlam,
kuy,
qo'shiq.

Ushbu maqolada o'zbek tilining umumturkiy qatlamiga oid musiqa terminlari etimologik, lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan. Tahlil natijasida ushbu terminlarning shakllanishi va rivojlanishida xalqqa xos etnik, diniy, milliy, madaniy xususiyatlari ta'siri yuqori ekanligi aniqlangan.

¹ Teacher, Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

Лингвокультурологический анализ общетурецких музыкальных терминов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

музыкальные термины,
лингвокультура,
этимология,
общетюркский слой,
мелодия,
песня.

В данной статье этимологически и лингвистически анализируются музыкальные термины, относящиеся к общетюркскому пласту узбекского языка. В результате анализа установлено, что на формирование и развитие этих терминов значительное влияние оказывают этнические, религиозные и национально-культурные особенности народа.

Turkiy xalqlar tarixan til, madaniyat, san'at va adabiyot sohalari mushtarak bo'lgan xalqlar sanaladi. Ularning etnik kelib chiqishi, lisoniy shakllanishi, madaniy qarashlari bir ildizga borib taqaladi. Oltoy tillar oilasi tarkibiga kiruvchi tillar tadqiqi turkologiya sohasining obyekti sanaladi. 1926-yilda Bokuda Birinchi turkologiya qurultoyi bo'lib o'tgan. Shu yildan boshlab rasman ushbu xalqlarning tilga va tilshunoslikka oid qarashlari umumiylik kasb etdi. Keyinchalik bu xalqlarning til xususiyatlari jahon tilshunosligi tomonidan ham chuqur tadqiq etila boshlandi. Masalan, Germaniyadagi turkologiya va turkiy tilshunoslik uzoq davr mobaynida dunyo turkologiya fanining karvonboshilaridan biri bo'lib keldi.

Musiqqa terminlari ham ushbu xalqlarda umumiy xarakterga ega bo'lib, ma'lum lexisik, fonetik hamda morfologik xususiyatlariga ko'ra farqli jihatlari mavjud. Bu farqlar, asosan, ushbu xalqlarning boshqa hududlar va xalqlar bilan aloqasi natijasida yuzaga kelgan.

Izlanishimizda o'zbek tili musiqqa terminlari tarkibidagi turkiy qatlamga oid terminlarni til tarixi va lingvomadaniyatshunoslik fanlarining nazariy bilimlariga tayangan holda tahlil etish maqsad qilingan.

Ushbu tadqiqot musiqqa terminlarining shakllanishi va rivojlanishida o'zbek xalqining etnik, geografik, diniy, milliy-madaniy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa xususiyatlarining ta'sirini aniqlash yuzasidan dolzarb sanaladi.

Tadqiqot obyekti sifatida hozirgi o'zbek adabiy tili tarkibidagi turkiy qatlam leksemalarining terminosistemaga o'tgan va termin sifatida muayyan sohaga oid tushunchani ifodalayotgan leksik birliklari olindi.

Inson borliqni anglash va nomlash jarayonida uni madaniy dunyoqarash prizmasidan o'tkazadi. Ana shu madaniy dunyoqarashning shakllanishida esa diniy tasavvurlar ustuvorlik qiladi. Turkiy xalqlar ham ana shunday diniy ta'sir asosida shakllangan madaniy dunyoqarashdan kelib chiqib, umumiy leksik qatalmni shakllantirgan. Ilk musiqqa terminlar diniy marosimlarda ishlatilgan musiqqa cholg'u nomlari bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlar tasviriy san'at namunalari, arxeologik topilmalar va xalq og'zaki ijodi namunalaridagi ta'riflar orqali olingan. O'zbek tilining shakllanishi sifatida ko'rsatiluvchi ushbu davrga oid eng qadimgi yozma yodgorliklar tarkibida ham ayrim musiqqa terminlar aks etgan bo'lib, ushbu terminlar bugunga qadar shakli va ma'nosini o'zgartirgan holda o'zbek tilida qo'llanmoqda. Bular turk-moni, budizm, islom dini va madaniyati ta'sirida paydo bo'lgan yozma manbalardir. Q. Sodiqov bir qator musiqqa terminlarining etimologiyasiga to'xtalib o'tadi. Jumladan, *küg~kög*,

qoşuq~qoşuğ, yir~ir soʻzlarini ilk turkiy tilga oid musiqa terminlari sirasiga kiritadi. N.Rahmonov va Q.Sodiqovlar qadimgi turkiy til tarkibini VII asrgacha – turkiy-run yozma yodgorliklar yaratilgunga qadar davrdagi mavqeini xorijiy manbalar asosida tadqiq etish natijasida ishonchli xulosalarga kelish mumkinligini taʼkidlaydi. Miloddan oldingi va milodning boshlaridagi turkiy madaniyat hamda turkiy qavmlarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy va etnik tarixiga oid manbalarning aksariyati Xitoy yilnomalaridan oʻrin olgan. Ushbu nomalarda turkiy qavmlar haqidagi maʼlumotlar mil.ol.III asrdan kiritila boshlangan. Bu davrda musiqa cholgʻulari aynan qanday atalgani toʻgʻrisida yozma maʼlumotlar yoʻq. Asosan, naysimon, arfasimon, doʻmbirasimon, udsimon, dutorsimon, changsimon, piyolasimon, doirasimon, tirnama cholgʻular bu davrga xos.

Turkiy tilga oid musiqa terminlar bugungi kunda terminosistema chegarasiga yaqinlashgan hamda soʻzlar bilan umumiylik kasb etgan. Ular nutqda umumisteʼmol soʻzlari kabi faol qoʻllanila olish xususiyatiga ega. Umumturkiy qatlamga oid musiqa terminlari turkiy xalqlarning madaniy qarashlari, borliqni anglash jarayoni va uni voqelantiruvchi birliklari bilan umumleksik qatlamni yuzaga keltirgan.

Mana shunday terminlardan biri *“kuy”* leksemasi boʻlib, *“turli baland va uzunlikdagi tovushlarning maʼlum bir ritm va ladda badiiy holatda kelishi”* tushunchasini ifolaydi. Ushbu leksemaning shakllanish jarayoni tilning madaniy taraqqiyoti bilan uzviy bogʻliq. Xususan, Sh.Rahmatullayev bu leksema *“kög”* tarzida XI asrda umumturkiy sathda faol qoʻllangani va arab tilidagi *gof* bilan ifodalanganda *“ashulada ovozni baland-past qilish”* [Будагов, 1969–1971] maʼnosida kelgani, *kof* fonemasi bilan esa *“sheʼrning vazni, oʻlchovi”* [Mahmud Qoshgʻariy, 1960–1963: 144] maʼnolarini anglatganligi haqida maʼlumot beradi. Ushbu terminning fonematik tizimidagi taraqqiyotini olim *kög>koʻy > kuy* [Rahmatullayev, 2000: 213] tarzida tahlil qiladi.

Sh. Rahmatullayev ushbu termin etimologiyasini *“Qadimgi turkiy til lugʻatida “nimagadir xitoycha deb taʼkidlangan” deya fikr bildiradi. Lugʻatda termin “tsyuy”, “khyog” – “kuy” maʼnosini ifodalashi “Devonu lugʻotit – turk” asariga tayanilgan holda beriladi. A.Fitrat “Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida ushbu terminga: “Turklar butun kuylarini, ashulalarini shul uch “usul doirasi” uzra “ijro qilar emishlar. Bularga “kug”lar der emishlar”, – deya fikr bildiradi va “kug” soʻziga ilova tarzida: “bu kungi “kuy” bilan munosabati bormi?”, – deya savol qoldiradi. Shuningdek, xitoyshunos olimlardan baʼzilari, Chin manbalarida yuzlab koʻhna turkiy soʻzlar bor deb, eʼtirof etadilar. Bunga sabab qilib, Chin (Xitoy)ning VI–VIII asrlarda turkiy qabilalar tomonidan tuzilgan Turk xoqonligi tarkibida boʻlganligidir. Qadimgi turkiy til davrida turkiy xalqlar xitoy xalqi bilan bir arealga kirgani uchun ham ushbu tillarda oʻzaro integratsiya jarayoni kichadi. Shuning uchun ham A. Fitrat xalqlarning madaniy va tillararo aloqasidan kelib chiqib, “kug” leksemasini xitoy tiliga oid birlik sifatida baholaydi.*

A. Fitrat *“Xitoylarda uch yuz oltmish kuy bor emish. Turk xoqonlarining majlislarida bu uch yuz oltmish kuyning har biri bir kunda chalinib, bir yilda tamom boʻlar emish. Bu uch yuz oltmish “kug” ning buyugi, asosi toʻqqiz “kug” emish”, – deya keltirilgan maʼlumotlarni XIV asrning 2-yarmida yashab ijod qilgan Marogʻali Xoja Abdulqodirning “Tuhfatu-s-surur” nomli asariga tayangan holda beradi. Tarixdan maʼlumki, Turk xoqonligi Markaziy Osiyo mintaqasi va unga tutash bir necha oʻlkalarni oʻz ichiga olgan yirik saltanat boʻlib, VI–VIII asrlarda tarix sahnasida edi. Turkiylar tomonidan Yevrosiyoda yaratilgan ulkan imperiya tarkibiga Xitoyning maʼlum hududlari ham kirgan. Xitoyga Suy va Tan sulolalari davrida Turk xoqonligining siyosiy va madaniy*

ta'siri katta edi. Bu paytda esa Sirdaryo va Amudaryo oraliq'i hamda unga tutash hududlar Xoqonlik tarkibida bo'lib, Xitoy bilan aloqlar karvonlar va boshqa vositalar orqali amalga oshirilgan. Ushbu davr haqida ma'lumot beruvchi Marog'ali Xoja Abdulqodirning fikrlariga tayangan holda A. Fitrat: "Burung'i turk musiqiysining Xitoy ta'siri ostida bo'lg'ani anglashilmoqdadir", – deya xulosa qiladi. Ushbu xulosa Xitoy va turkiy xalqlar orasidagi uzoq tarixga ega madaniy aloqalar sabab paydo bo'lgan degan xulosani yuzaga keltiradi.

Tadqiqot jarayonida *kuy* terminini etimologik tahlil etish orqali ushbu leksema an'anaviy xitoy tilida *xuánlǜ* deb nomlanishi aniqlanildi. Xitoy hududidagi turkiy xalq sanalgan uyg'urlarning turkiy madaniyatidan kelib chiqib, ushbu terminni tahlil etish lozim degan xulosaga kelindi. Qadimgi turkiy tilga oid leksik birliklar haqidagi yozma manbalarining katta qismi uyg'ur yozuvida yoki xitoy tilida yozilgan bo'lib, ushbu yozuv turlari turkiy tildagi tovushlarni to'liq ifodalay olmagan.

Shuningdek, VIII–IX asrda keng qo'llanilgan uyg'ur yozuvi xususiyatlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, *k-g* tovushlari bir xil harflar bilan yozilgan, ö-ü unlilari "vav" harfi va undan so'ng "ya" orqali ifodalangan. Ushbu yozuv turkiy til tovushlar tiziminining fonetik tuzilishini to'liq aks ettira olmaganini inobatga olgan holda *küg~kög* leksemasining *ko'k – osmon* ma'nosini beruvchi leksema bilan farqlanmagani, ö-ü unlilari ham har xil shaklda berilganligidan kelib chiqib, musiqashunos A. Muhambetovanning "kuy" nomli musiqiy namunalar turkiy xalqlarning islomga qadar madaniyatiga taalluqli bo'lib, mazmunan qadimiy kosmologik qarashlarni aks ettirgan", – degan qarashlar ham asosli sanaladi. Ushbu fikr turkiy xalqlarning ilk diniy qarashlari bilan aloqador. Jumladan, Turk xoqonligi hududidagilar *tangrichilik*, ya'ni *yagona osmon ruhiga* topinishgan. VIII asrda arablarning O'rta Osiyoni iste'lo qilishi natijasidagina bu hududga islom dini kirib kelgan. Turkiy xalqlarning ilk musiqiy ohangga ega qo'shiqlari ham aynan ko'k ilohi va ilohalariga bag'ishlab yaratilgan.

Küg~kög leksemasining etimologiyasi va uning semantik xususiyatlari bo'yicha yana bir qarashlardan biri uni hozirgi o'zbek adabiy tilidagi "alanga (issiq) ta'sirida yonib, iste'molga yaroqsiz (ko'mir) holatiga yetgan" ma'nosini anglatuvchi "kuymoq" fe'lining ma'no ko'chishi asosida hosil bo'lgan degan qarashlar ham mavjud. Qadimgi turkiy tilda bu fe'l asli *köy* – tarzida talaffuz qilingan. Ayni mana shu ma'no asosida shakllangan kuylar ma'lum bir tur va turkumlarga birikib, O'rta Osiyoda maqom san'atining shakllanishiga asos bo'lgan. Tasavvufiy qarashlar asosida ishqda (ishqi ilohiyda) yonib kuygan oshiqning ruhiy holatlarini ifodalash uchun yaratilgan kuylar jam bo'lib, yaxlit "kög"ni, ya'ni "maqom"ni tashkil qilgan. Bugungi maqom tizimiga asos bo'lgan O'n ikki maqom tarkibidagi maqom nomlari ma'nolari ham *kuy* leksemasining ishq ilohiyda yonish bosqichlarini ifodalaydi:

Ushshoq – oshiqlar, yuksak ishq timsoli;

Navo – ishq, muhabbat kuyi; oshiqlarning dardli kuyi;

Busalik – mahbubini izlashga chiqqan yo'lovchi;

Rost – to'g'ri, haqiqiy, (oshiq) ixtiyor qilgan to'g'ri yo'l ramzi;

Xusayniy – oshiqning yo'lboshchisi;

Rohaviy – ("roh" so'zidan) – yo'l ramzi; yo'l harakatiga ishora;

Hijoz (Makkayi Mukarrama va Madinayi Munavvara shaharlari joylashgan o'lka) – haj safariga ishora; asosiy maqsad timsoli;

Zangula – qo'ng'iroqcha, "talab tuyasi", yo'ldagi karvon ramzi;

Iroq (ziyoratchilar karvoni o'tadigan mamlakat nomi) – solik o'tishi lozim bo'lgan va ayni vaqtda maqsadga "olib boruvchi yo'l" ramzi;

Isfahon ("sarkash, to'shak, yotish payti") – safarbarlik harakatining poyoniga yetishi, ziyoratning tugashi;

Kuchak (Zirafkandning qo'shimcha ikkinchi nomi, "kichik" ma'nosini bildiradi) – kichik olam, mikrokosmos;

Buzrug (katta, ulug', buyuk) – katta olam, makrokosmos.

Maqom san'atining shakllanishida turkiy xalqlarning borliqni anglash haqidagi bilimlari zardushtiylik, islomiy, tasavvufiy qarashlar asosida shakllangan *Küg~köglar* eng muhim manbaa bo'lib xizmat qilgan.

VIII asrga qadar *küg~kög* bugungi *maqom* ma'nosini bajargani "Devon u-lug'otit turk" dagi quyidagi she'riy parcha mazmunidan anglashiladi:

"Köglär qamug' tüzüldi,

Jwrıq izish tizildi.

Sëniz özüm özäldi,

Kelgil amul ojnalı.

Ma'nosi: Kuylar bir-biriga moslashtirildi,

May idishlari qatorlashtirildi,

Ko'nglim sensiz seni istab beqarordir.

Kel, ko'ngilni tinchitib shodlanaylik.

Matn asosida ma'lum sistema holatiga kelgan ohanglar *küg~kögni* tashkil qilganligi ma'lum bo'ladi.

Musiqashunos O.Ibragimov ushbu ta'riflarni Najmiddin Kavkabiyning "Kulliyot" asari asosida berib o'tadi: ishq ko'yida "kuy"gan oshiqning ruhiy holatlarini ifodalash va ishqning avj (koinot cho'qqisi)ga ko'tarilishidagi bosqichlarni aks ettirish uchun yaratilgan "kuy"lar bugungi "maqam" san'atining asosiga aylangan. Aynan shuning uchun ham musiqashunos O. Ibragimov, I. Rajabov va A. Muhambetovalar "kuy" so'zini "ko'k" shaklida berishgan.

Shuningdek, M. Qoshg'ariy "ko'k" va "kök" so'zlarini o'zaro farqlaganda "kök": osmon, she'r vazni, ohang, havo rang, xotinlar yuzidagi dog' ma'nolarida; "ko'k": egar chilviri va urug'-avlod ma'nolarida izohlagan. Ushbu asarni sharhlagan S.Mutallibov Navoiy davrida ushbu ikki leksema bir xil fonematik tizimga ega bo'lganligi haqida ma'lumot beradi:

1. ko'k – osmon:

Ko'kka yetti sadoyi no'shonush.

2. ko'k – osmon rang:

Chiqti ko'k atlasin kiyib xurshid,

Ko'k libos ichra nilufar yanglig'.

3. ko'k – kuy:

Mutribi navha aro navha ko'kin choldi yana...

4. sozlamoq, ma'lum vaznda tuzmoq:

Ey mug'anniy, sen navo ohangida ko'kla qo'buz.

Q. Sodiqov bir qator musiqiy terminlar etimologiyasiga to'xtalib o'tadi, xususan, *küg~kög* leksemasi qadimgi turkiy tilda "she'r, qo'shiq" ma'nosida keng qo'llanilgan bo'lib, turk moniy adabiyotining namoyandasi Aprinchur tigin she'rlarining yakuniga *Tügädi Apričor tigin kügi* (Tugadi Aprinchur she'ri) deb yozib qo'yilgani haqida ma'lumot beradi. Qadimgi turkiy manbalarda ba'zan bu atama *küg tağšut* shaklida qo'llanilib,

“she’riyat” ma’nosini bildirgan”, – deya fikr bildirib quyidagicha ilmiy asoslaydi: til taraqqiyotining keyingi davrlarida mazkur soʻz “küy”ga aylangan. Moniylik davri turk adabiyotida *bašik, küg, taqšut, küg taqšut* kabi she’r turlari mavjud boʻlib, bizgacha ulardan ayrimlari yetib kelgan. Hozirgi oʻzbek tilidagi “ohang” ma’nosini bildiruvchi *küy* qadimgi *kügning* oʻzgargan shakli hisoblanadi: (-k// -g>-y; -ö>ü). Tilimizda uning “she’r, qo’shiq” ma’nosi hozir ham saqlanib qolingan. Tadqiqotchi ushbu leksema m’nosini “ohang, kuy” ma’nosiga emas, “she’r, qo’shiq” ma’nosiga bogʻlaydi. Ushbu fikr asosi sifatida *kuyla* soʻzida “kuy chalmoq” ma’nosi emas, “qo’shiq aytmoq” ma’nosi mujassam ekanligini aytib, san’atkor kuyladi – san’atkor qo’shiq aytdi misoli orqali asoslaydi. Shuningdek, bu soʻzni “Devonu lug’otit turk”da qoʻllangan köglä (er köglädi) fe’lining fonetik jihatdan oʻzgargan shakli ekanligini aytib: *köglä~küglä> küylä* sifatida tahlil etadi. Mahmud Koshg’ariy *köglä* – fe’lini izohlar ekan, uning “*kuylamoq, ashula aytmoq*” ma’nosida ekanligini ta’kidlaydi. Alisher Navoiy “Muhokamatu-l-lug’atayn” asarida hozirgi “ohang, kuy” ma’nosidagi “kuy”ni “kök” shaklida keltirgan. Navoiy asarlari boʻyicha tuzilgan “Abushqa” lug’atida “kök”dan yasalgan *kökla* fe’liga keng izoh beriladi. Kitobda muallif kökla fe’lining ma’nosi haqida shunday yozadi: kökla – kâflar kâf-i’arabi: dur. Amr edüp sâz çal ma’nâsinadur deb izohlanib, unga misollar berilgan”. *Kuy* termini tarkibida dastlab “ohang” ma’nosi emas, “she’rni ma’lum ohanga solib aytish” ma’nosi boʻlganini musiqa lug’atlari tarkibida yunon tilidan oʻzlashgan “melodiya” termini “qo’shiq kuylash” ma’nosida izohlangani orqali bilishimiz mumkin.

Jamiyat rivojlanishi va uning madaniy taraqqiyoti oʻz-oʻzidan oʻsha millatning til tarkibi rivojiga ham oʻz ta’sirini koʻrsatadi. Turkiy xalqlar muloqot vositasi boʻlgan tillar tarixan moʻgʻul va tungus-manchjur tillari bilan birgalikda Oltoy tillar oilasi tarkibiga kirgan. Natijada, ushbu xalqlar madaniy birliklari ham bu davrda umumiylik kasb etgan. Ushbu til birliklari qadimgi turkiy til davrining Oltoy va Xun davrlarida umumiy leksik qatlamga ega boʻlgan.

Qadimgi turkiy tilning birinchi davri eng qadimgi davrdan to milodning V yuzyilliklariga qadar boʻlgan davrni oʻz ichiga oladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida Oltoy davrining oxirida bu tillar ikkita katta til guruhiga boʻlinib, tungus-manchjur va turk-moʻgʻul tillar guruhlariga ajraladi. Natijada, bu davrda turk-moʻgʻul tillari tarkibi oʻzaro fonologik, morfem-morfologik, leksik va semantik jihatdan umumiylik kasb eta boshlagan. Bu davrga oid manbalar, asosan, xalq ogʻzaki ijodi namunalari boʻlib, ular ogʻzaki shaklda vujudga kelgan, vaqtlar oʻtishi bilan oʻzgarib borgan. Jumladan, bu davrga oid oʻzgarishlarni “*küg~kög*” leksemasining semantik mundarijasini tahlil etish jarayonida koʻradigan boʻlsak: “she’r”, “ohang”, “kuy”, “ashulada ovozni baland-past qilish”, “maqom” “cholgʻu” kabi ma’nolari shakllangan boʻlib, ular tilimizning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan. Fin tadqiqotchisi Chingduang Yurayong turkiy tillar uchun *musiqa* termini ma’nosini ifodalovchi *küg~kög* leksemasi umumiy ekanligini tadqiqotlari tahlilida berib oʻtadi. Shuningdek, turk tili musiqa terminlarini tadqiq etgan Gültekin Oransay ham ushbu termin arabiy oʻzlashma sanalgan *musiqa* termini mazmunini ifodalagan sof turkiy birlik ekanligini ilmiy izohlaydi. Termin turkiy tillarga oid manbalarda “*kük*”, “*kög*”, “*kök*”, “*gük*”, “*gök*”, “*gög*” yoki “*küg*” tarzida kelishi haqida ma’lumot beradi.

Qadimgi turkiy til davrida ushbu termin oltoy tillari va uning tarkibiga kiruvchi turkiy tillar uchun umumiy semani ifodalab, leksemaning semantik taraqqiyoti natijasida *she’r > qo’shiq > kuy > musiqa > maqom* ma’nolarini anglatgan. I.Rajabovning: “Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol boʻlgan,

kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan” degan fikri ham turkiy xalqlar, xususan, o‘zbek xalqining musiqiy qarashlari VIII asrga qadar “küg~kög” leksemasi orqali ifodalangan musiqiy bilimi taraqqiyotini dalillaydi.

Fikrimiz isboti sifatida leksemaning bugungi mo‘g‘ul tilida “*musiqa*” ma’nosini ifodalashini keltirish mumkin. Shuningdek, tadqiqotchi A.Bo‘ronov turkiy xalqlarning tarixiy ildizi sanalgan oltoy tili tadqiqida doston ijro etuvchilar Oltoylarda *kaychi* (*kuychi*)lar deb nomlangani haqida ma’lumot beradi. Bundan ko‘rinadiki, “musiqa ijro etuvchi” ma’nosi *kaychi* termini orqali ifodalangani ham *kuy* termini *musiqa* ma’nosini ifodalovchi sof turkiy leksema ekanligini anglatadi.

Shuningdek, “taqshut”, “*yir*”, “*ir*”, “*jir*” terminlari ham turkiy tillar uchun umumiy bo‘lib, so‘z va kuy jo‘rligidagi ijroni ifodalagan.

Tarixan bir umumiy madaniy konseptga ega bo‘lgan turkiy xalqlar musiqiy terminologiyasini qiyosiy tadqiq etish orqali til egasi bo‘lgan insonning madaniyatga va uning madaniy qarashlari til tarkibiga qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash mumkin. Inson bolaligidan boshlab o‘z millatiga xos tilni va u orqali madaniyatni o‘zlashtirib boradi. Xalqning o‘ziga xos madaniy xususiyatlari tilida yuzaga chiqadi. O‘zida ana shunday qarashlarni aks ettirgan o‘zbek tili musiqa terminlarining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tadqiq etish orqali o‘zbek tiliga o‘zga tillarning va shu orqali turli madaniyatlarning ta’siri hamda natijada xalq konseptidagi o‘zgarishlar aniqlaniladi. Ya’ni, tildagi madaniyat omili, u orqali insondagi til omili tadqiq etiladi.

Madaniy tashuvchi vazifasini bajaruvchi *musiqa terminlari* o‘zbek tili tarkibida salmoqli qismni tashkil qiladi. Ushbu terminlarning leksik-grammatik tadqiqiga oid qarashlar S.Azizov tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Tadqiqot tarkibida terminlarning tarixiy tadrijiga ham e’tibor qaratilgan. Biroq terminologik tizimdagi bunday o‘zgarishlarga ta’sir etuvchi omillar tahlil etilmagan. Shuningdek, bugungi sinxron sath uchun tadqiqot yaratilgan davr diaxron bo‘lib, natijada terminologik tizimdagi ko‘plab musiqa terminlari istorizm yoki arxaizimga aylangan. Ushbu tadqiqotda ana shunday o‘zgarishlarni madaniy ta’sir omilida tahlil etishga harakat qilindi.

V.Belyaevning fikricha hozirgi kunda o‘zbek va tojiklarda musiqa asarlarining dastlabki shakllari marosim qo‘shiqlari, bolalar qo‘shiqlari, onalar allasi, yig‘ilar vositalari bilan bizgacha yetib kelgan.

Yir, ir, jir – kuy, maqom. *Ol jir jirladi* – u bir maqomni kuyladi. Ko‘pinchi bu so‘z she’rga nisbatan qo‘llandi. Bu so‘zni *ir* tarzida ham talaffuz qilinadi.

Ushbu leksema asosida *jirla* fe’li yasalgan bo‘lib, *kuyla* ma’nosi ifodalangan. Bugungi kunda *jirov* leksemasi ushbu asosdan yasalgan bo‘lib, *doston kuylovchi* ma’nosida qo‘llaniladi.

Shuningdek, aza marosimlarida yig‘ichilarning yig‘lash jarayoni o‘zbek tili qipchoq lahjasida *jila* shaklida qo‘llanilib, *muayyan ritmik asosga ega ohang* ma’nosini ifodalaydi. Ayni ushbu ma’no *jirlamoq* fe’lining o‘zbek tili dialektida saqlanib qolingani varianti sanaladi.

Aytim – so‘z, kuy va o‘yin (raqs) unsurlarining o‘zaro “qorishib” kelishini ifodalaydi. O.Ibrohimov xalq aytimlarining ohangini notaga tushirilsa, yurak urish ritmi hosil bo‘lishini aytadi. Bundan xulosa chiqadiki, turkiy xalqlar musiqiy bilimi insoniyatning musiqiy tafakkuri zahiriga qurilgan. Aytimlarda yig‘i ohangi yetakchilik qilishi ushbu terminning etimologiyasi semantik jihatdan *jir* va *jila* leksemalari bilan bog‘liqligini bildiradi.

Qo'shiq – ushbu termin *qo'sh* – *juft* ma'nosini ifodalovchi asosga *-(u)g'* qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan. Bu ot asli "she'r", "qasida" ma'nosini anglatgan, ma'no taraqqiyoti natijasida "ashula qilib aytiladigan she'r", umuman "ashula" ma'nosi yuzaga kelgan. Sh.Rahmatullayev ushbu so'z eski turkiy til davrida rivojlangan bo'lib, so'z oxiridagi *g'* undoshi *q* undoshiga, ikkinchi bo'g'indagi *u* unlisi *i* unlisiga almashgan deya izohlaydi: *qosh* – + *ug'* = *qoshug'* > *qoshuq* > *qoshiq*.

Ushbu termin terminosistemaga yaqinlashgan leksema sanalib, soha vakillari nutqidan tashqarida ham ma'nosi anglashiladi. Antroposentrik nazariya asosida g'arb ilm-fani *qo'shiq* leksemasini *kuy* va *she'r uyg'unligini anglatuvchi birlik* sifatida tahlil etayotgan bir paytda, turkiy xalqlar qadimgi turkiy til, eski turkiy davrlaridayoq ushbu birlikda san'at, xususan, musiqa oid tushunchalarini aks ettira olgan. *Qo'shiq* tor ma'noda aytimning muayyan turi, janrini anglatadi.

Turkiy poetikani tadqiq etgan I.Stebleva ham yir (jir), qo'sh (qo'shiq), ko'g (kuy) kabi janrlar turkiy xalqlarning eng qadimgi janrlari ekanligi haqida xulosa qiladi. Ushbu xulosa yuqorida tahlillarimizni dalillash uchun xizmat qiladi.

Cholg'u – kuy ijro etish asbobi. Sh. Rahmatullayev ushbu so'z eski o'zbek tilida *chal* – fe'lining "*kuy ijro et*" ma'nosidan *-g'u* qo'shimchasi bilan yasalganini aytib, keyinchalik *a* unlisi *â* unlisiga almashgani haqida ma'lumot beradi. Ushbu asosdan hozirgi o'zbek adabiy tilida harakatni yuzaga keltiruvchi shaxs nomini ifodalovchi *cholg'uchi* termini, faoliyat-jarayonni anglatuvchi *cholg'uchilik* leksemasi yasalgan.

Chal – musiqa asbobida kuy ijro et. Ushbu leksemaning musiqa termini sifatida ifodalanuvchi ma'nosi qadimgi turkiy tildagi *chal* – fe'lining *ur* – ma'nosidan o'sib chiqqan. Dastlab, *chal*– fe'lining *ur*– ma'nosidan "*urib ovoz chiqar*" ma'nosi, keyinchalik ma'no taraqqiyoti natijasida "*urib kuy ijro et*" ma'nosi, keyinchalik "*musiqa asbobida kuy ijro et*" ma'nosi yuzaga kelgan.

Ilk musiqa cholg'ulari urib ijro etiluvchi cholg'ular sanalib, shomonlarning *doiralari* turkiy xalqlar uchun dastlabgi cholg'ular sanaladi. Shuning uchun ham *chal*– leksemasi mazmunida insonlarning borliqni anglash haqidagi qarashlari taraqqiyotini ko'rish mumkin.

Qo'biz – (qo'buz) tadqiqotchi K.Rixsiyeva ushbu leksemani G. Dyorferning fikriga tayangan holda bu musiqa asbobining nomi aslida *qopuz* shaklida bo'lgani va turli turkiy tillarda turlicha fonetik variantlarga egaligi haqida ma'lumot beradi. Ushbu leksemaning asosi qadimgi turkiy tilda "*ko'tarilmoq*", "*yuqorilamoq*" ma'nolariga ega bo'lgan *qop* fe'li ekanligini aytib o'tadi.

Ushbu musiqa cholg'usi turkiy xalqlarning tangrichilik dini ta'sirida paydo bo'lgan bo'lib, *shumercha* – *tengir* – "*koinot*" ma'nosi asosida shakllangan ma'noga ega.

O'yna – *tana*, *oyoq*, *qo'l* va *qosh*-ko'zlarni *kuyga monand holda go'zal harakatlantir*, *raqsga tush* ma'nolarini ifodalaydi. Sh. Rahmatullayev ushbu fe'l qadimgi turkiy tildagi *oyun* otidan *-a* qo'shimchasi bilan yasalgan bo'lib, qo'shimcha qo'shilganidan so'ng ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'ygan, o'zbek tilida *a* unlisi *â* unlisiga almashgan: *oyun* + *a* = *oyuna* – > *oyna* – > *oynä* – shakliga kelgani haqida ma'lumot beradi.

Leksema ma'nosi hozirgi o'zbek adabiy tilida *raqs* termini orqali ifodalanadi. Harakatlar asosida muayyan ritmik ohang turgani uchun ham ushbu leksema musiqa termini sanaladi. Ushbu termin ifodalagan tushuncha turkiy xalqlarning shomonizmga oid qarashlari asosida shakllangan bo'lib, diniy marosim paytida shomonlar tomonidan amalga oshirilgan harakatlar, shuningdek, aza marosimlarida yig'ichilarning muayyan ritmik tebranishlari, harakatlari bunga asos bo'lib xizmat qilgan.

Sibizg'a – “nay” cholg'u asbobining mumtoz shakli. Sh.Rahmatullayev ushbu leksemani qadimgi turkiy tilda *sibizg'u* tarzida, eski turkiy tilda esa uchinchi bo'g'indagi unlilarning qattqlik belgisi yo'qolib, *a* unlisi *ä* unlisiga almashgani: *sibizg'u* > *sibizg'a* > *sibizg'a* > *sibizg'ä* shakliga kelgani haqida ma'lumot beradi.

Musiqa cholg'u nomini ifodalovchi ushbu termin etimologiyasini Sh.Rahmatullayev *sibiz* – asosining “*ingichka ovoz chiqar*” ma'nosidan o'sib chiqqani haqida xulosa bildiradi. Biz ham ushbu fikrga qo'shilgan holda ovoz diapazoni naydan ingichka sanalishini fikrni dalillash uchun keltirib o'tamiz.

Shuningdek, *baraban*, *changqobuz*, *do'mbira* kabi terminlar ham turkiy qatlamga oid musiqa terminlari sanaladi.

Yuqorida tahlil etilgan musiqa terminlari turkiy xalqlarning borliqni anglash, tahlil etish va xulosalar chiqarish jarayoniga etnik kelib chiqish, diniy, dunyoviy bilimlar, areal joylashuv, urf-odat va marosimlarning ta'siri natijasida shakllanganini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1997. – B. 146.
2. Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.
3. Abdurauf Fitrat. Eng eski turk adabiyoti namunalari (Adabiyotimizning tarixi uchun materiallar). Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
4. Ali Uçan. Geçmişten günümüze, günümüzden geleceğe Türk müzik kültürü. Müzik Ansikpedisi Yayinlari, 2000.
5. Abdurahmonov G'., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. Toshkent: O'qituvchi, 1982.
6. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: O'qituvchi, 1989.
7. Aliyev A. Sodiqov Q. O'zbek adabiy til tarixidan. – Toshkent: O'zbekiston, 1994.
8. Abdushukurov B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: NAVOIY UNIVERSITETI, 2019.
9. Asli Gedikli. Türkçe müzik terminolojisi sorunsali ekseninde Gültekin Oransay. Türk Müziği, Mart 2023. Turkmuzigidergisi.com
10. Budagov L.Z. Sraunitilniy slovar turetskogo – tatarskix narechiy. I – II tomlar. Sangpeterburg, 1969 -1971;
11. Bo'ronov A. Oltoylar. – Toshkent: Muharrir, 2017.
12. Boltaboyev H. Aruz ilmi saboqlari // Maqom. Toshkent: BOOKMANY PRINT. № 1. 2022.
13. Drevnetyurkskiy slovar. Leningrad: NAUKA.
14. Eltazarov J. O'zbek tilining Germaniyada o'rganilishi tarixidan (XX asrgacha bo'lgan davr). Uluslararası Türk Lehçe Araştırmaları Dergesi (TÜRK LAD) 3. Cilt, 1. Sayı, 2019. Türkiye.
15. Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoyetik va lingvokulturologik xususiyatlari. Diss: Filol.fan.dok. (DSc). Toshkent, 2021.
16. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqasi ijodi. –Toshkent, 1994.
17. Ibragimov O. Maqom asoslari. – Toshkent, 2018.
18. Jamoliddinova D. Badiiy matnda terminlarning lingvopoyetik va lingvokulturologik xususiyatlari. Diss: Filol.fan.dok. (DSc). Toshkent, 2021.
19. Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy fonetikasi. T.: 2006.
20. Matniyozov A. R., Yusufov B. O'zbek tilining shakllanish va rivojlanish tarixi. – Toshkent, 2023.

21. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. II jild. – Toshkent, 2003.
22. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T. III. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi filologiya fanlari nomzodi S.Mutallibov. – Toshkent, 1960-1963.
23. Kemal Atatürk ve Küg. Ankara: Küg Yayını. 1965.
24. Oltun yorug'. – Toshkent: Fan, 2009. 1-kitob.
25. Oransay Gültekin. "Küg" Ankara: Küg yayını. Küg Dergesi Sayılar: 1-2. 1969.
26. Qo'chqortoyev I. Isabekov B. Turkiy filologiyaga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1984.
27. Rahmonov N. Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. – Toshkent, 2009.
28. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. I jild. – Toshkent: Universitet, 2000.
29. Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent, 2006.
30. Sodiqov Q. Turkiy yozma yodgorliklar tili adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi. – Toshkent, 2006.
31. Sodiqov Q. Turkiy til tarixi. T.: 2009.
32. Stebleva I.V. Tyurkskaya poetika. Etapi razvitiya VIII-XX vv. M.: Vostochnaya literatura, 2012.
33. Chingduang Yurayong. Areal-linguistik approach to the diversity of the generic terms for 'Music' in the world's languages. University of Helsinki. 24.IX.2018. vol. 681.